

## TO'QIMACHILIK TARMOG'INI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION IMKONIYATLARDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI

*PhD, dots. Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*ORCID: 0000-0001-9366-5519*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ini iqtisodiy rivojlanirishda investitsion imkoniyatlardan foydalanish yo'nalishlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion salohiyat, sanoat korxonalari, resurslar, moddiy resurslar, mehnat resurslari, moliyaviy resurslar, innovatsion resurslar, asosiy fondlar, aylanma fondlar.

## НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ТЕКСТИЛЬНОЙ ОТРАСЛИ

*PhD, доц. Мадрахимова Гуласал Рузимбаевна*  
*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В данной статье представлены направления использования инвестиционных возможностей в экономическом развитии текстильной отрасли Узбекистана.

**Ключевые слова:** инвестиционный потенциал, промышленные предприятия, ресурсы, материальные ресурсы, трудовые ресурсы, финансовые ресурсы, инновационные ресурсы, основные средства, оборотные средства

## DIRECTIONS FOR THE USE OF INVESTMENT OPPORTUNITIES IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE TEXTILE NETWORK

*PhD, assoc. prof. Madrakhimova Gulasal Ruzimboy qizi*  
*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** In this article, the directions of the use of investment opportunities in the economic development of the textile sector of Uzbekistan are highlighted.

**Key words:** investment potential, industrial enterprises, resources, material resources, labor resources, financial resources, innovative resources, basic funds, revolving funds

### Kirish.

Mamlakatimizdagи to'qimachilik sanoat tarmog'iga so'ngi yillarda katta miqdorda investitsiyalar jalb etilishi natijasida texnologik takomillashuv darajasi yildan yilga oshib bormoqda. Shuningdek, so'ngi yillarda mamlakat tomonidan ushbu tarmoqqa keng ko'lamlı investorlarni jalb qilish, tarmoqni investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'ngi 3 yil ichida tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar 2 mlrd. AQSh dollari miqdorda investitsiyalar jalg qilingan va 260 dan ortiq yirik to'qimachilik korxonalari ishga tushirilgan<sup>44</sup>. To'qimachilik sanoatining respublika YaIMdagi ulushi 4,8 foizni tashkil etib, sanoat mahsulotlarining 25 foizi, ishlab chiqarish asosiy fondlarinii 13 foizi ushbu tarmoqqa to'g'ri keladi va eng asosiysi sanoatda band xodimlarning 32 foizi aynan shu tarmoqda faoliyat yuritmoqda<sup>45</sup>.

Mamlakatimizda bugungi kunda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida juda ko'plab iqtisodiy islohotlar amalga oshirilyapti. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonning 3-bandiga ko'ra, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashda muhim bo'lgan ustuvor vazifalar belgilab olingan bo'lib, ushbu vazifalar sohani istiqbolli rivojlanishini ta'minlaydi<sup>46</sup>. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi mamlakatimizda sanoat tarmog'i xususan, to'qimachilik tarmog'i faoliyatini baholashni takomillashtirishni taqozo etadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Investitsion salohiyatini aniqlashda olimlar tomonidan turli hil yondashuvlar mavjud bo'lib, Guskovaning (2016) fikriga ko'ra "Investitsiya salohiyati makroiqtisodiy xususiyatlarni, hududning ishlab chiqarish omillari bilan to'yinganligini, aholining iste'mol talabini va boshqa parametrlarni hisobga oladi".

Valinurova, Kazakovlarning (2010) fikriga ko'ra, Investitsiya salohiyatini quyidagicha aniqlash taklif etiladi..."moddiy-texnik, moliyaviy va nomoddiy aktivlarni o'z ichiga olgan investitsiya resurslari to'plami (sanoat ob'ektlariga egalik qilish, foydali qazilmalarni qazib olish, ijtimoiy-iqtisodiy, bozor munosabatlari sohasida ma'lumot to'plash, to'plangan tajriba va boshqalar)".

Katasonov (2005) fikriga ko'ra, Har qanday darajadagi xo'jalik yurituvchi sub'ektning investitsiya salohiyatini quyidagicha aniqlash taklif etiladi... ushbu sub'ektning oldingi iqtisodiy faoliyati natijasida to'plangan, sub'ektning joriy iqtisodiy faoliyatini buzmasdan investitsiya faoliyatini (kapital qo'yilmalar shaklida) ta'minlash uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan barcha o'z resurslarining (moliyaviy, moddiy, ilmiy-texnikaviy, kadrlar) maksimal yig'indisi".

Tumusovning (1999) fikriga ko'ra, Investitsiya salohiyatini quyidagicha belgilaydi. "...to'plangan kapitalning investitsiya bozorida potentsial investitsiya talabi shaklida taqdim etiladigan, kapitalni ko'paytirishning moddiy, moliyaviy va intellektual ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan real investitsiya talabiga aylanishi mumkin bo'lgan qismini tashkil etadigan potentsial investitsiya resurslari to'plamidir".

O'zbek iqtisodchi olimlari xususan, Vahabov (2010) investitsiyaning mazmun-mohiyati bo'yicha quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Investitsiyalar – foya olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yildigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklardir" degan ta'riflarni bergenlar. To'qimachilik tarmog'ini rivojlantirishda investitsiya imkoniyatlari va undan foydalanishni yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda uning asosiy elementlarini olimlar fikrlariga tayangan holda maqolaning asosiy qismida ko'rib chiqamiz.

<sup>44</sup> "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi ma'lumotlari. <https://uzts.uz/en/to-investors/investment-potential>

<sup>45</sup> O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

<sup>46</sup> 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi [https://www.norma.uz/qonunchilikda\\_yangi/20222026\\_yillarga\\_mujallangan\\_yangi\\_uzbekistonning\\_taraqqiet\\_strategiyasi\\_tasdiqlandi](https://www.norma.uz/qonunchilikda_yangi/20222026_yillarga_mujallangan_yangi_uzbekistonning_taraqqiet_strategiyasi_tasdiqlandi)

## Tadqiqot metodologiyasi.

To'qimachilik tarmog'ini iqtisodiy rivojlantirishda investitsion imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiya, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

## Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakatimiz to'qimachilik tarmog'ini investitsion faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, so'ngi 3 yil ichida tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar 2 mlrd. AQSh dollari miqdorda investitsiyalar jalb qilingan va 260 dan ortiq yirik to'qimachilik korxonalari ishga tushirilgan. Sanoat tarmog'ida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jadal sur'atlarda oshib bormoqda, shunga qaramasdan hali ham eksport bo'yicha yetakchi o'rinni paxta kalava ipi eksporti egallagan (jami eksport hajmining 41 foizi). Mamlakat qanchalik ko'proq tayyor mahsulot ishlab chiqarsa, shunchalik ko'proq foyda olishi mumkin. Shuning uchun ham to'qimachilik mahsulotlarini hom ashyo xolatida yoki yarim tayyor mahsulot holatida emas balki tayyor tugal mahsulot holatida keltirish va eksport qilish borasida davlatimiz tomonidan ko'plab chora tadbirlar amalgalashmoqda.

2023 yilda eksport tarkibida eng katta ulushni tayyor to'qimachilik mahsulotlari 41,4 foiz (1,3 mlrd AQSH.dollar) tashkil etgan bo'lsa, mato 6 foiz (176,5 mln. dollar), trikataj matosi 10 foiz (306,6 mln.dollar), paypoq mahsulotlari 2 foiz ( 61,1 mln.dollar) tashkil etgan. Mamlakatda ushbu tarmoqda tayyor mahsulotlar eksportini oshirishga qaratilgan islohotlar amalgalashmoqda qaramasdan eksport tarkibida hali ham paxta kalava ipi eksporti 41,3 foiz (1,3 mlrd AQSH.dollar) bilan jami mahsulotlar tarkibida 2 o'rinda turibdi.

Respublika to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini yanada kengaytirish, mahalliy to'qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish maqsadida "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-71-son, 01.05.2024-y.) qabul qilindi. Farmonga ko'ra, gazlama, trikotaj mato ishlab chiqarish va bo'yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali ip-kalavani qayta ishslash darajasi 2027-yil yakunigacha bosqichma-bosqich 100 foizga olib chiqish rejalashririlgan. Shuningdek, farmon doirasida tarmoq faoliyatini rivojlantirish uchun keng doiradagi imtiyozlar joriy etildi, bular jumlasiga (Farmon, 2024):


- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan ro'yxat bo'yicha import qilinadigan xomashyo va boshqa materiallar, butlovchilar va ehtiyyot qismlar 2027 yil 1 yanvargacha bojxona bojidan ozod qilinadi;

- 2024 yil 1 maydan 2026 yil 1 maygacha «A» va undan yuqori toifadagi to'qimachilik va tikuv-trikotaj yo'nalishidagi tadbirkorlarda soliq tekshiruvlari o'tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o'tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, QQS summasi o'rnini qoplash (qaytarish) 1 kun muddatda tekshiruvlarsiz amalgalashmoqda;


- Toshkent shahrida va bosqichma-bosqich hudud markazlaridagi yirik savdo komplekslarida «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» (Made in Uzbekistan) brendi ostida milliy mahsulotlar do'konlari tashkil qilinadi;

- Respublikani «to'qimachilik xabi»ga aylantirish va kamida xalqaro darajada tan olingan 10 ta mahalliy brendlarni yaratish ustidagi ishlar manzilli tashkil etiladi;

- 2026 yil 1 yanvargacha to'qimachilik sanoat zonalari direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan ozod etiladi (Farmon, 2024).



**1-rasm. «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi korxonalarida 2019-2023 yillarda mahsulot eksporti va tarmoqqa kiritilgan investitsiyalar hajmi, mln. AQSH dollarda**



**2-rasm. To'qimachilik tarmog'ini investitsion salohiyatini baholash mezonlari**

Tarmoq faoliyatini rivojlantirish maqsadida joriy etilgan imtiyozlar Respublika to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirishga shuningdek sohaning eksport salohiyatini yanada kengaytirish, mahalliy to'qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratadi.

To'qimachilik tarmog'ining investitsiya salohiyatini undan foydalanish shartlari bilan bog'liq holda yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda uning asosiy elementlari sifatida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin:

moliyaviy (investitsiya faoliyatida foydalanish mumkin bo'lган pul resurslari va yuqori likvidli moliyaviy aktivlar to'plami (moliyaviy aktivlar - bu kompaniyaga qo'shimcha daromad olish imkonini beradigan mulkchilikning o'ziga xos shakli.));

ishlab chiqarish (ishlab chiqarish faoliyati natijasida sanoat korxonasi tomonidan to'plangan moddiy va nomoddiy aktivlar to'plami);

resurs va xom ashyo (sanoat korxonasi tomonidan ishlab chiqarish faoliyatida ishlatalishi mumkin bo'lган eng muhim tabiiy resurslarning balans zaxiralari bilan ta'minlash);

infratuzilma (sanoat korxonasi joylashgan hududda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasini tavsiflovchi shartlar);

institutsional (bozor iqtisodiyotining zarur institutlari bilan ta'minlash);

kadrlar (professional o'qitilgan ishchi kuchi va muhandislik xodimlarining mavjudligi);

intellektual (aholining ta'lim darajasi, xodimlarni qayta tayyorlash imkoniyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish darajasi va boshqalar);

innovatsion (ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini joriy etish o'lchovi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish darajasi).

Investitsiya salohiyati ko'pincha tarmoq uchun iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud bo'lган investitsiya resurslari to'plami sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, har qanday salohiyatning, shu jumladan investitsion salohiyatning muhim xususiyati uning elementlarining bir-birining o'rnnini bosishi bo'lib, bu tarmoq korxonaning ishlashi va rivojlanishi uchun maqbul variantlarni tanlash imkoniyatini beradi. Har qanday sanoat tarmoqlarining investitsiya salohiyatini boshqarishning samarali mexanizmini shakllantirish muayyan printsiplar tizimini talab qiladi, ularga quyidagilar kiradi:

tadbirkorlik faoliyatiga ta'sir etuvchi ekzogen va endogen omillarning yuqori o'zgaruvchanligi mavjud bo'lganda investitsiya salohiyatini direktiv shakllantirishning mumkin emasligi;

investitsiya salohiyatining tizimli tabiat, uni shakllantiradigan barcha omillar o'rtasidagi munosabatlar sifatida;

investitsiya salohiyatining asosiy ko'rsatkichlarining umuman investitsiya ob'ekti xususiyatiga yaqinligi, ya'nii investitsiya salohiyatini mustaqil shakllantirish va amalga oshirishning mumkin emasligi va ushbu ob'ekt faoliyatining tabiat;

investitsion salohiyat holatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning o'zgarishiga javob berish samaradorligi;

investitsiya salohiyatlari tizimi elementlarining xususiyatlarining dinamikasi;

umuman investitsiya salohiyati va uning alohida elementlarining samaradorligi maqsadlari va mezonlarining birligi;

korxonaning tashqi va ichki muhitidagi o'zgarishlarga investitsiya salohiyatining moslashuvchanligi;

investitsiya salohiyati elementlarining alternativligi, o'zaro almashinish darajasi tashqi iqtisodiy vaziyat bilan sezilarli darajada bog'liqidir.

Shunday qilib, tarmoqning investitsiya salohiyatining mohiyati uning tizimiga kiritilgan elementlarning o'zaro ta'siri natijalariga to'liq bog'liq.

Tarmoq korxonalarda innovatsion strategiyadan foydalanish qo'shilgan qiymatning ulushi yuqori bo'lган import o'rnnini bosuvchi va eksport qilinadigan mahsulotlar ishlab

chiqarishga yo'naltirilgan samarali korxonalarni ustuvor rivojlantirish hisobiga ishlab chiqarish tarkibidagi tub o'zgarishlarni nazarda tutadi.

### Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytadigan bo'sak, Mamlakatdagi to'qimachilik korxonalarida takomillashtirilgan investitsiya strategiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- soha bilan bog'lik nazariy bilimlarni rivojlantirish, bunda ilmiy tadqiqot markazlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi aloqadorlikni mustahkamlash ya'ni, amaliyotdagi mavjud muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilish va maqbul yechimlar bo'yicha takliflarni amaliyotga tadbiq qilib borish;
- tarmoqqa investitsiyalarni yanada kengroq jallb etish, bunda investorlar uchun yanada kengroq imkoriyatlar yaratish (soliqlardan beriladigan imtiyozlar darajasini oshirish)
- O'zbekistonda qabul qilingan innovatsion rivojlanish dasturlaridoirasida innovatsion rivojlanish;
- xalqaro ilmiy-texnik va innovatsion hamkorlik tizimini takomillashtirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini ko'paytirish, ishlab chiqarish hajmida tayyor mahsulotlar hajmini oshirishga erishish;
- yangi texnologiyalarni (shu jumladan nanotexnologiya va nanomateriallar, tizimli axborot texnologiyalarini) ishlab chiqish va rivojlantirish, bunda, yuqori sifatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksportini kengaytirish, milliy brendlarni jahon bozorlariga ilgari surish maqsadida ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalar, nou-xau, dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish, furnitura va aksessuarlarningzamonaviy namunalarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish;
- sanoat korxonalarida innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish, shu jumladan mahsulot va texnologik o'zgartirishlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentidagi tarkibiy o'zgarishlar, yangitexnologiyalardan foydalangan holda uskunalarga xizmat ko'rsatish uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash;
- texnologiyalar, litsenziyalarni ishlab chiqish, sotib olish va sotish, qo'shma ilmiy-texnik konferensiyalar, ko'rgazmalar o'tkazish bo'yicha ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar va dasturlar asosida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- tarkibiy va texnologik qayta qurish, engil sanoatning intellektual salohiyatini saqlash va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, engil sanoat uchun ilmiy-ishlab chiqarish markazini yaratish, bunda, tarkibiy va texnologik qayta qurish, engil sanoatning intellektual salohiyatini saqlash varivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, engil sanoat uchunilmiy-ishlab chiqarish markazini yaratish;
- o'rta tolali paxtadan past chiziqli zichlikdagi ipni ishlab chiqarish texnologiyasi va assortimentini kengaytirish uchun ilmiy asoslarni ishlab chiqish, bunda, o'rta tolali paxtadan past chiziqli zichlikdagi paxta iplarining yangi assortimentiga asoslangan paxta va aralash matolar turlarini kengaytirishning ilmiy asoslarni ishlab chiqish;
- ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh yuqori iste'mol xususiyatlari ega mahsulotlar ishlab chiqarish sohasidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, nanotexnologiya va plazma ishlov berish usullaridan foydalangan holda yangi turdag'i to'qimachilik materiallarini ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish, maxsus kerakli xususiyatlarga ega aqlli to'qimalarni yaratish dolzarb bo'lib qoladi. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun akademik institutlarning mutaxassislari, universitet ilm-fanining etakchi olimlari, shuningdek yangi ishlanmalardan foydalanan dunyoning etakchi ishlab chiqarish kompaniyalarining yuqori texnologiyali uskunalari to'qimachilik korxonalariga mutlaqo yangi turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirishga imkon beradi.

Yuqoridagi yo'nalishlarni to'qimachilik tarmog'i faoliyatida joriy qilinishi ishlab chiqarish darajasiga ijobji ta'sir etuvchi sinergetik samara hosil qiladi. Bu yo'nalishlarni amalga oshirish

xarajatlarni kamaytirib sifatni oshishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida, mahsulot va umumiy tarmoqning raqobatbardoshligini oshiradi.

**Adabiyotlar/ Литература/ Reference:**

Farmon (2024) "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni (PF-71-son, 01.05.2024-y.) <https://buxgalter.uz/uz/doc?id=751194>.

Guskova N.D., Krakovskaya I.N., Slushkina Y.Y. (2016) Investitsiyalarni boshqarish. -M.: Knorus, - 438 b.

Katasonov V.Y. (2005) Iqtisodiyotning investitsiya salohiyati: shakllantirish va foydalanish mexanizmlari. -M.: Ankil, -328 b.

Madrahimova G.R. (2019) Improving The Use of Investment in Improving The Efficiency of Light Industry Enterprises in Uzbekistan. // International Journal of Research in Management & Business Studies ( IJRMBS 2019) ISSN:2348-6503. Volume 6, Issue 2 (April-June). Impact Factor (5) GIF – 0.70. 32-35-p. <http://ijrmbs.com/vol6issue2/madrahimova.pdf>

Madrahimova G.R. (2020) Analysis of the current status of the textile industry in the economy of Uzbekistan. // Economics and Innovative Technologies. Vol. 2020, No. 1, January-February, 1/2020 (08.00.00; №10). 1-9-p. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot/vol2020/iss1/3>

Madraximova G.R. (2020) Mamlakatimiz iqtisodiyotida sanoatning o'rni, ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari. // Biznes-Ekspert. – Toshkent, 2-son. 104-109-b. (08.00.00 №3).

Tumusov F.S. (1999) Mintaqaning investitsiya salohiyati: nazariya, muammolar, amaliyat. -M.: Iqtisodiyot, -272 b.

Valinurova L.C., Kazakova O. B. (2010) Investitsiya. -M.: Volters Kluver, - 448 b.

Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. (2010) Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: «Moliya». 303 b.